

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA

INSTITUTI

O'zbek tilshunosligi kafedrası

**Filologiya fakulteti 5141100 – O'zbek tili va
adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi**

**[Rozimova Nodiraning](#) « Akademik litsey va kasb-hunar
kollejlarida yordamchi so'z turkumlarini o'rgatish
masalalari» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

NUKUS – 2014

HIMOYAGA TAVSIYA QILINDI:

«____» _____2011 YIL

Fakultet dekani:

dots. G.Qurbaniyozov

Kafedra mudirasi:

f.f.n. M.Xudayarova

Ilmiy rahbar:

assistent O.Yeshimbetov

MAVZU: « Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida yordamchi so'z turkumlarini o'rgatish masalalari)»

MALAKAVIY-BITIRUV ISHI

Rozimova Nodiraning « Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida yordamchi so'z turkumlarini o'rgatish masalalari)» mavzuidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan ball «____» («____%») (____) bahosi qo'yilsin.

«____» _____ 2011 yil

D A K raisi:

prof. S.Matchanov

DAK a'zolari:

dots. G.Qurbaniyozov

prof. K.Qurambaev

prof. Y. Ibragimov

dots. E. Xo`janiyozov.

katta o`qit: S.Jalilov.

Mavzu: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda yordamchi so'z turkumlarini o'rgatish masalalari

I. Kirish:

Akadaemik litsey va kasb-hunar kollejlarda yordamchi so'z turkumlarini o'rgatish masalalari

II. Asosiy qism:

a) yordamchi so'z turkumlari mavzusini o'qitish metodikasining maktab va kollejlardagi farqi.

a) ko'makchi

b) bog'lovchi

c) yuklama

d) zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bugungi kundaligi o'rni.

e) Adabiyotlar ro'yxati

Bir soatlik dars ishlanma

III. Xulosa:

Kirish

Mustaqil O'zbekistonnig ravnaqi uchun olib boriladigan madaniy va ma'naviy sohalaridagi keng ko'lamli ishlar, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni va "kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'limining barcha bo'g'inlarida ona tili o'qitishni tashkiliy va mazmuniy jihatdan qayta ko'rishni taqozo etadi.

Ona tili ta'limining bosh maqsadi- og'zaki a yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat. Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmaga, o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni savodxonlikni rivojlantirishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limida ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlaydigan nutq va muloqat madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi. Bunday fanda o'quvchilar ongida ma'naviy, ma'rifiy inqilob hosil qilmishga erishish lozim. "Davlat ta'lim standartlari, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar va oily ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi". Uni belgilash natijasida, ona tilining unitary xarakteriga ega bo'lgan tizimli kursini islih qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ta'limning yangi modeli asosida dastur va darsliklar yaratishga yo'l ochadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini miyorlashga, hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi, o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi.

U har bir sinfda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi. Davlat ta'limi standartining tayanch o'quv rejasida, ona tili o'quv fanidan sinflar bo'yicha o'quv soatlari quyidagicha belgilangan. Ammo bu dars soatlarini o'qitish metodlari maktab va akademik litseylarda bir-biridan farqliroq o'tiladi. Ya'ni

Sinflar	V	VI	VII	VII
Haftada	6	5	3	2
O'quv yilida	204	140	102	102

Avvalo, mavzu o'quvchilar xotirasida mustahkam bo'lib qolishi uchun, darsliklar yetarli bo'lishi, turli ko'rgazmali qurollar va eng asosiysi o'qituvchining o'zi o'rgatadigan mavzusini mukammal darajada bo'lishi kerak. Ona tili mashg'ulotlari bosqichli ketma-ketlik, shakl va mazmun aloqadorligi, tilshunoslik bo'limlarining o'zaro bog'liqligi asosida quriladi.

Darsni qiziqarli va noan'anaviy tarzda olib borish uchun o'qituvchi darsda faolroq bo'lishi, unda turli ko'rgazma o'yinlar, tarqatma kartichkalar sayohat darslari uyushtirilsa, ko'zlagan maqsadimizga erishamiz. Tilning yaxlitlik, ta'limning esa aloqadorligi aloqadorlik prinsipi, butun kurs davomida izchillik bilan boriladi. Shuning uchun har bir mashg'ulotda, o'quvchi turli lug'atlar va mashqlar bajarishga jalb qilinadi.

XX-asr muallimi, yuksak taraqqiy etib borayotgan, bugungi fan va texnika yutuqlariga, har doim hozirjavob bo'lishi, ulardan o'z darslarida

samarali foydalana olishi kerak bo'lmoqda. Ona tili o'qitishning mazmuni va metodlari o'qituvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilishga ko'maklashishi lozim.

Jamiyatimiz yuqori ma'lumoti fan asoslarini chuqurroq egallagan, o'z bilimlarini ishlab chiqarishda mohirlik bilan tadbqiq qila oladigan kishilarni talab etadi. O'zbekiston Respublikasining "ta'lim to'g'risida" gi va "kadrlar tayyorlash milliy dasturi ", shuningdek Vazirlar mahkamasining 1998 -yil 5-yanvardagi "uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish to'g'risidagi 5-son qaroriga muvofiq, ona tili o'quv fanida ta'lim standarti ishlab chiqildi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'limi standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra, davlat , davlat manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi, hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari , qobiliyati va qiziqishlari ustivorligidan kelib chiqadi. Bugungi kunda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda e'tibor juda katta berilgan. Unda dasrlikdan tashqari, mavzuga oid turli ma'lumotlar berilib boriladi. Masalan: Yordamchi so'z turkumlari mavzusi maktablarda , darslikda berilgan ma'lumotlar , undan tashqari turli ma'lumotlar berilib o'tiladi. Ammo, ko'pincha an'anaviy tarzda darslar namoyon bo'ladi.

Akademik litsey va kasb- hunar kollejlarda buning aksi, ya'ni yuqoridagi ma'lumotlardan tashqari, mavzuga oid tadbirlar, test va og'zaki savol-javoblar bo'ladi. Ularning bilim darajasini baholashda reyting usullarida olib boriladi. Shuning uchun, ham , ularning fikrlash qobiliyati shakllanib, bilim saviyasi keng qamrovli bo'lib yetishadilar. Bunday o'quv muassasalarda deyarli har bir dars noan'anaviy tarzda o'tadi. Bunday rivojlanib borayotgan muassasalar va u yerda tahsil

oluvchi o'quvchi tabalar , O'zbekiston kelajakining ravnaqi, taraqqiyotining yanada gullab-yashnashi uchun zamin bo'la oladi.

Ta'lim usuli

Ta'lim usuli asosan induktivdir. Shuning uchun mashg'ulotda faol ishlovchi o'quvchining o'zidir. Har bir mashg'ulot taxminan to'rt bosqichni o'z ichiga oladi.

- a) Takrorlash
- b) Berilgan matnlarni o'quvchilar tomonidan tahlil qilish
- c) Materiallar o'quvchi tomonidan umumlashtirish va hukm chiqarishga kerak bo'ladi.
- d) Hosil qilingan umumiylikni amalda qo'llash sinash, o'qish masalalarini yechish.

Darsda, matn ustida ishlash topshiriqlari va mashqlari, bu dastur va darsliklarda ko'plab mo'ljallangan. Har bir mashg'ulotda o'quvchilar tomonidan yaratiladigan matn esa to'la-to'kis ijodiy bo'ladi, lekin o'qituvchi ularning barchasining tekshirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. O'quvchilar tomonidan yaratilgan matnlarni tekshirishda ularning o'zlarini jalb qilish zarurdir. Bu ularning ma'suliyat hissini oshiradi. Insho esa matnning eng oily ko'rinishi. Insho orqali o'quvchi hayotga bo'lgan, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Dastur va darsliklarning nazariy asoslari , o'zbek sistemaviy tilshunosligi fanining eng so'nggi yutuq va talqinlariga, ulardan chiqarilgan ilmiy-metodik xulosalariga tayanadi. O'quvchining ta'lim jarayonida faol ishtirokchi ekanligi uning darslik topshiriqlari asosida o'qituvchi rahbarligida quyidagi turdagi turdagi mustaqil ishlarini bajarishda o'z aksini topadi.

1. Kuzatish- darslik topshiriqi asosida na tili xodisalaridan berilgan namunalarni kuzatish.

2. Izlanish- o'ylash, xotirada tiklash, so'rash, ma'lumotlardan foydalanish.

3. Aloqadorlikni aniqlash o'rganilgan hodisalarining yondoshlari bilan munosabatini aniqlaydilar.

4. Qo'llash- hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og'zaki shakllarda sharxlab, ijodiy matn tuzadi.

Har bir hodisa ona tili mashg'ulotlarida yondash (vazifadosh, ma'nodash, qiymatdosh) lari bilan birgalikda o'rganishi sababli, ulardan har birining imloviy, talaffuziy, uslubiy mohiyatlari va xususiyatlari ham hodisalar bilan birgalikda o'zlashtirib boriladi. O'quvchilarning ona tili ta'limi asosida sinfma-sinf olgan amaliy ko'nikmalari va bilimlari on tilidan, Davlat ta'lim standarti mezonlari orqali baholanadi. Ona tilining ko'rishish va imkoniyatlari bo'yicha bilimlari tizimi bilan belgilanadi. Har bir mezon bo'yicha ko'rsatkichlarning sifat va miqdor jihatdan mukammallashib borishi, ushbu dasturda o'z aksini toopgan. Ona tiliga oid bilimlarni berishda, tilning ko'p sathli cheksiz imkoniyatli, qat'iy qonuniyatli, murakkab tizim sifatidagi talqiniga tayanadi.

Davlat ta'limi mezonlarini ishlab chiqish va uni barkamol shaxs tarbiyasiga yo'naltirishda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash mexanizmini ishlab chiqish hal qilish ahamiyatga ega. Tarbiya amaliyoti sistemasi, pedagogika ilmi taraqqiyoti o'quvchilar tayyorgarligini aniqlashning xilma-xil vosita va usullarini taqdim etmoqda. Shu ni aniqroq aytish kerakki, maktablarda adabiy ta'lim standartlariningn o'zini bevosita sinovdan o'tkazish ham, uning talablariga amal qilish natijalarini aniqlash ham mumkin emas.

Dasturda ko'zsda tutilgan natijalar eng quyu ko'rsatgichlar bo'lganligi uchun ham ularni egallagan talabalarga "o'rta" bahoni ko'tarish

maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir o'quvchi, ta'limning biror bosqichini muvaffaqiyatli bitirish uchun qanday shahslik xususiyatlar hamda qay darajadagi bilimga ega bo'lish va o'zini shu ko'rsatgichlar talabiga javob bera oladigan darajada tayyorlashi kerak. Umumiy o'rta maktab adabiy ta'limi, ta'lim jarayonining alohida bir sohasi hisoblanadi.

Shuning uchun ham bu davrdan boshlab, turli sinfdagi o'quvchilar oldiga aniq talabalar majmuini qo'yish va turli bosqichlarning standart ko'rsatgichlarini aniq belgilash mumkin bo'ladi. Umumiy o'rta ta'limi bosqichi o'quvchilarining ruhiy- xususiyatlari shundayki, ularga pandu- nasihat qilish, aql o'rgatish kutilganidan teskari natija berishi mumkin. Ayni vaqtda ezgu ma'naviy fazilatlar, go'zal insoniy amallar bevosita ko'rsatilsa va o'quvchilarga tiqishtirilmasdan, tabiiy ravishda ularning ruhiyatlariga singdirilsa, bu fazilat hamda amallar yoshlar tabiatining ajralmas xususiyatlariga aylanishi mumkin bo'ladi. Pedagogik amaliyotda minglab yillardan buyon ta'lim oldiga qo'yiladigan talablar bilan ish ko'rib kelinayotir. Har bir o'quvchiga bilimni yetkazib berish ta'lim samaradorligiga kelib taqaladi. Bu samaradorlikni oshirishi esa avvalo, o'qituvchining pedagogik mahorati va uning ta'lim jarayoniga nisbatan yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ona tili o'qituvchilarining pedagogik mahorati darjasi har bir dars hamda, o'rganilayotgan mavzu o'quvchilarga yetkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy texnologik yondashuvni taqozo etmoqda. Texnologik yondashuv negizida namoyon bo'luvchi holatlarini bu dars jarayonining muayyan loyiha asosida tashkil etilishi so'raladi. Yoshlarga ta'lim tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etishi o'qituvchilarning g'oyaviy e'tiqodi,

kasb va mahorati, iste'dodi va madaniyati, o'quvchilarni o'zaro faollikka olib kelishiga bog'liqdir. Barcha didaktik (jadvallar, rasm, matn, ko'rgazmali qurollar) darsning o'zida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar o'quvchilarning darsda olgan bilimlarining mantiqiy davomi bo'lishi kerak. Ta'lim mazmunan murakkab, shaklan rang barangdir. Dars jarayoni o'qituvchi va o'quvchining uzliksiz mehnati tarzida o'tsa. O'quvchining fikr qilish qobilayati, nutqi, savol-javob berishi, mahorati o'sadi. Natijada uning ilmiy – amaliy salohiyati shakllanib rivojlana boradi. Barkamol shaxsni shakllantirishda darsda yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarning qo'llanishi ham katta ahamiyatga ega. Chunki ular, darsda turli ko'rgazma qurollarini ko'rib, ulardan unumli foydalana olsa, har qanday o'quvchi xotirasida shu mavzu mustaqil bo'lib muhrlanib qoladi.

Darvoqe', yordamchi so'z turkumlari mazmun va hajm jihatdan keng bo'lgani uchun, bu mavzu ikki- uch soatga bo'lib o'tilishi kerak. Aksincha bir soatga mo'ljallab o'tilsa, o'quvchining o'zlashtirib olishi qiyinlashadi. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama mavzulari uchun alohida bo'lib test ishlashlari kerak. Shularga qo'shib, darslik ma'lumotlaridan tashqari, boshqa grammatika kitoblardan ma'lumotlar ham berilib o'tilishi lozim. Davlat ta'limi standartida ham keng qamrovli mavzular uchun uch soat ajratilishi ta'kidlangan. Bu dars jarayonlari ham noan'anaviy tarzda turli metodlar bilan olib borish maqsadga erishish uchun zamin bo'la oladi.

Yordamchi so'z turkumlari mavzusini o'qitish metodikasining maktab va kollejlardagi farqi.

Kasb-hunar kolejlari va akademik litsey dasturlari, oldingi o'quv bosqichlari, umumta'lim bosqichlarida, maktab va keyingi pag'onada turgan oily o'quv yurtlarining o'quv dasturlari bilan o'zaro

munosiblikda bo'lib, ta'limning uzliksiz va izchillik prinsipiga amal qiladi. Bugungi kunda akademik litsey va kollejlarda ularga mo'ljallangan maxsus dasturlar yaratilgan. Bu dasturning maktab dasturlaridan farqi shundaki, kollejlarda o'qitiladigan "ona tili va adabiyoti" fani, shu fandan o'rta maktablarda kam e'tibor berilgan mavzularni to'ldirish, o'quvchilar to'la anglab olmagan yoki tushunilishi qiyinchilik tug'diradigan mavzularni kengroq izohlash va shu orqali yetarli nutqiy malakani shakllantirish, adabiy-badiiy matnlar ustida ishlash ko'nikmalarini o'stirish kabi vazifalarni bajarishga qaratilgan.

Avvalo, dars qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqamiz. Darslarda o'zimiz o'rgatgan manbalardan savallor yoki testlardan unumli foydalanamiz. Ta'lim har doim takaomil va yangilanishga mushtoqdir. Bugungi kunda o'rta maktab litsey va kollejlarda dars soatlari anchagina farq qiladi. Undan tashqari dars jarayonlari ham o'rta maktab va akademik litseylarda turli usul, metodlarda olib borilmoqda. Ayniqsa, ko'rgazmali qurollar, turli mavzuha oid krasvord o'yinlar o'tkazilsa, har qanday o'quvchiga ham o'tilgan mavzular xotirasida yaxshiroq muhrlanib qoladi. Ammo, bugungi kunda maktablarda mavzu faqat kitobdagi ma'lumotlar bilan cheklanib, an'anaviy tarzda namoyon bo'lmoqda. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari esa boshqacharoq usulda, ya'ni o'quvchilarning bilim saviyasini baholashda reyting usuli katta yordam bermoqda. Masalan, yordamchi so'z turkumlari va uning turlari to'g'risida, darslik ma'lumotlaridan tashqari, quyidagi ma'lumotlar ham berib o'tiladi. Va ular iloji boricha noan'anaviy tarzda o'tiladi. Tildagi har bir so'zni, ayniqsa yordamchi so'zlarni alohida o'rganish har bir tilning ichki taraqqiyot qonunlarini ochishga yordam beradi. Chunki har qanday

mustaqil soʻz yordamchi soʻzga oʻtish bilan Grammatik maʼno tashuvchi vositaga, Grammatik formaga aylanadi va tilda eng koʻp qoʻllanuvchi soʻzlar qatoridan oʻrin oladi. Bu soʻz tildagi maʼlum tushunchani ifodalamay mavhum tushunchalarni taniy boshlaydi. Ular esa tilning Grammatik strukturasini tashkil qilishga xizmat qiladi.

Koʻmakchilar

Koʻmakchilarning boshqa yordamchi soʻzlardan semantik va Grammatik xususiyatlari aniq boʻlganligi uchun bir soʻzning oʻzi ham koʻmakchi ham bogʻlovchi vazifasini bajarib, kelganda ham, ularning qaysi oʻrinlarda bogʻlovchi ekanligini osonlikcha farqlab olish mumkin. Chunki ular har doim ot yoki otlashgan soʻzlardan keyin keladi va oʻzidan oldin kelgan soʻz birikmasi bilan bir xil soʻroqqa javob boʻladi, u gap boʻlaklari tarkibida keladi. Koʻmakchilar vazifasida va maʼnolariga koʻra kelishiklarga juda yaqin turadi. Ular kelishik affikslari orqali beriladigan maʼnoni toʻldiradi, aniqlaydi, kelishiklarga nisbatan maʼnoni kengaytiradi. Baʼzi koʻmakchilar kelishik affikslari oʻrnida kelib, ular bajargan vazifani bajaradi. Masalan:

- a) qalamda yozdim- qalam bilan yozdim.
- b) Oʻqishga ketdi- oʻqish uchun ketdi.

Ular oʻzgarmaydi (turlanmaydi, yasalmaydi) . Koʻmakchilar gapda, vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon va shu kabi bir qancha munosabatlar bildirish uchun qoʻllanuvchi soʻz turkumidir.

Koʻmakchilarning leksik va semantik xususiyatlari.

Koʻmakchilar tuzilishiga koʻra ikkiga boʻlinadi.

- a) sof koʻmakchilar

b) funksional ko'makchilar

Sof ko'makchilar- gapning ichida boshqa so'zlar bilan birga kelgandagina o'ziga xos qo'shimcha ma'nolarni anglatadi. Ular quyidagilardir: bilan, uchun, sayin, sari, qadar, orqali, uzra...

Masalan, U mashina orqali bordi. U ulg'aygan sari yomonlashayapdi.

Sof ko'makchilar o'z ma'nosini yo'qotgan bo'lib, boshqa so'zlar bilan birikib, turli munosabatlarni bildiradi.

Funksional ko'makchilar- bular o'z mustaqil ma'nosini saqlagan so'zlar hisoblanadi. Ular gapda ko'pincha ko'makchi o'rnida kelib, harakat bilan predmet o'rtasidagi turli munosabatlarni ifodalaydi. Bular o'zidan oldin kelgan so'zga nisbatan qaralmish holatida bo'ladi. Shunga ko'ra kelishik afiksidan oldin egalik afiksi keladi. U bir necha turkumlar ichida namoyon bo'ladi.

- Ot,-old, orqa, tomon,ust, haqida, ichida ...
- Sifat- boshqa , qarshi, tashqari, asosan, binoan...
- Fe'l- ko'ra,qarab, boshlab, tortib, beri...
- Ravish- burun, ilgari, avval, keyin, so'ng....

Bog'lovchilar

Bog'lovchilar- yordamchi so'z turkumlarining ko'rinishlaridan biri bo'lib, u ham gap bo'laklarini bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Bog'lovchilar hech qachon o'zgarmaydi va ular o'z mustaqil ma'nosiga ega bo'lmaydi. Ular yasalmaydi, ham turlanmaydi.

Bog'lovchilar ma'no munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

- a) teng bog'lovchilar
- b) ergashtiruvchi bog'lovchilar

1)Teng bog'lovchilar – bular ma'nosiga ko'ra uchga bo'linadi.
Ular quyidagilar;

- a) Biriktiruv bog'lovchisi -va, hamda, bilan
- b) Zidlov bog'lovchisi- ammo, lekin, biroq
- c) Ayiruv bog'lovchisi- yo, yoki, yoxud, goh, dam, ba'zan..

“U soyga goh suvga , goh o'tlarga qarab gaplashadi.”u

2. Ergashtiruvchi bog'lovchi- bu asosan qo'shma gaplar tarkibidagi, ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun hizmat qiladi. Bu bog'lovchi ma'no ifodalashiga ko'ra to'rtga bo'linadi;

- a) Aniqlov- kim,ki, ya'ni
- b)Sabab- shuning uchun, chunki
- s) Shart- agar, basharti, agarchi
- d) Chog'ishtiruv – go'yoki, go'yo, xuddi

Bog'lovchilar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi;

a)Yakka bog'lovchilar- uyushgan bo'laklar orasida yakka holda qo'llanadi. Ular quyidagilar: va, hamda, biroq , balki, yoki, gar, chunki

b) Takroriy bog'lovchilar- u soda gaplar orasida takror qo'llanadi. Ular quyidagilar: dam-dam, goh-goh, ba'zan-ba'zan, yoki-yoki, yo-yo...

Yuklama

Yuklama- bu ham yordamchi so'z turkumlaridan biri bo'lib so'z yoki biror gapda qo'shimcha ma'no berish uchun qo'llanadi. Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xilda bo'ldi.

a) yuklama so'z –hatto, axir, xuddi, haq...

b) yuklama affiks- mi, chi, a, yo, oq, yoq, gina, kina, qina

“Unga aytishim bilan –oq, orqasiga qaramay yugurib ketdi”

Yuklamar ma'no xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi.

1. So'roq va ta'jub- mi ,chi, a, ya

2. Kuchaytiruv va ta'kid- u, yu, da, ku, oq, yoq, ki, axir, xatto, xattoki, nahotki...

“Otabekning qiyqirik ovozidan, hatto butun Toshkent larzaga keldi.”

3. Ayiruv va chegaralov – gina, kina, qina, faqat, faqatgina, yolg'iz...

4. Aniqlov – xuddi, naq

5. Tuman- dir

6. Inkori yuklamasi – na...na

Masalan: Sog'inganim, yolg'iz senga ayondir. Uni na faollik va na ko'k bilar...

Yuklamalarning afikslari shaklan afiksga o'xshaydi. Bular orasidagi farq shundaki, afikslar so'zga qo'shilib yangi bir ma'nodagi so'z yasaydi. Yuklamalar esa o'zi izohlab kelgan gap va so'zlarga qo'shimcha ma'no (yuk) beradi. Masalan: „Kichik oshni o'tkazgach, Hasanali o'z hujrasidan kiyinib chiqdi-da. Otabek yoniga keldi. U kelishi bilan-oq Otabek tilida kalima ham kelmay qoldi „ („O'tgan kunlar”) .

Mana shunday an'anaviy tarzda dars jarayonlari, ba'zi bir o'rta maxsus maktablarida olib boriladi. Natijada o'quvchilar faqatgina kitobdagi ma'lumotlar bilan cheklanib qoladilar. O'quvchilar bilimini

yanada kengroq bo'lishi uchun, darsda qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu- ilmiylikdir.

Darvoqe' akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan dastur shu fan bo'yicha umumiy o'rta maktab dasturiga asoslanishi va bu ta'lim bosqichida, chuqur o'zlashtirilmagan bilimlarni mustahkamlashni talab qiladi. Shunga ko'ra, akademik litseylarda dars soatlarini olib borish jarayonlari, umumiy o'rta maxsus maktablariga nisbatan ancha kengroq va turli metodlarda namoyon bo'ladi. Bu usullar albatta ko'zlangan maqsadga muvofiqdir. Akademik litsey va kollejlarda ajratilgan dars soatlaridan tashqari qo'shimcha dars mashhulotlari mavjud. Bunday mashg'ulotlar, o'quvchi olgan ilmni mustahkamlab, bilim saviyasini va malakasini oshirishda katta ro'l o'ynaydi. Ma'na shunday ko'rinishlar ikki o'quv muassasining farq qiladigan tamonidir. Darsda o'rganiladigan bilimlar mazmuni tilshunoslikni o'zida aks ettirishi ta'lim jarayonining maqsadiga, hamda bolalarining bilim saviyasiga mos bo'lmog'i zarur. Ta'limda bularning birortasiga rioya qilinmasa, so'ng ona tili mashg'ulotlarining samaradorligiga putur yetkaziladi. O'zbek tilining o'qitishi prinsiplari ta'lim-tarbiya jarayoniga asos bo'ladigan qonun va qoidalarini o'z ichiga oladi. Tilning o'qitishi prinsiplari quyidagilar;

1. Ta'lim – tarbiyaviylik- bu yosh avlodni har tomonlama kamolatga yetkazishni nazarda tutadi. Dars jarayonida o'quvchilarga milliy g'oya, vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat kabi tuyg'ulorni singdiradi.

2. Ilmiylik va tushunarlik prinsipi – o'quv predmetlarini, hozirgi fan yutuqlari bayon qilsa, tushunarlik – o'quv predmetlarini bolalarining yoshi, xususiyatlari tayyorgarlik darajasiga moslashtirishini, ya'ni oddiydidan murakkab o'tishni taqoza qiladi.

3. Ko'rsatmalilik prinsipi bu, darsda turli ko'rgazmalardan foydalanishdir. Ayniqsa, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ko'rgazmalilikni yanada kengroq tashkil qilish maqsadimizga muvofiq. Turli timsollar, rangli jadvallar, lingafon, radio, telivideniya ko'rsatuvlari.... bilan ta'minlashga sharoit yaratib beradi. Bu narsa boshqa prinsiplarda ham ko'zga tashlanadi.

4. Onglilik prinsipi- uning bir qancha turlari mavjud.

-ta'limning asosiy maqsadini anglab yetish

-daliliy materiallarni mustahkam egallash.

-bilimlarni o'rganish va tajriba oshirish.

Bunday ko'nikma va malakalarga suyanish kabilarga imkon yaratib beradi.

5. Tizimlilik prinsipi- mashg'ulotlardan keyin o'rganiladigan hodisa, oldingi o'rganilganlarga asoslansin. O'rgangan va o'rganilayotgan bilimlar o'rtasidagi aloqadorlik izchillik orqali erishiladi.

6. Mustaqillik va faollik prinsipi – o'rta maxsus va kasb- hunar kollejlarda ona tili mashg'ulotlarida asosiy e'tibor o'quvchilardan ijodiy fikr mahsulini mustaqil va izchil bayon qilishga, so'z boyligini oshirish, matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi Bizga ma'lumki, o'quvchilar boshlang'ich sinflarda bu to'g'risida qisqacha ma'lumot olib o'tganlar. Yordamchi so'zlarni sintaksisga bog'lab o'rgatish, o'quvchilarning gap haqidagi avval olgan bilimlarini mustahkamlabgina qolmay ,balki, ularni kelgusi sinflarda o'rganiladigan mavzularni yaxshilab o'zlashtirishga va bilimni shakllantirishga ham tayyorlab beradi. O'rta maxsus maktablarida an'anaviy o'qtish usulida ta'lim maqsadi, dastur talabiga binoan aniqroq ifodalamaydilar. Talabning o'zlashtirilish darajasi sifatida muallim aniq tasavvurga ega bo'lmaydi. An'anaviy ta'lim mamlakatimiz o'quv yurtlarida keng tarqalgan, uning

turli xil jihatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan , katta tajriba to'plagan. Ammo uning ob'ektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan ta'lim sohasidagi islohatlar va tezda rivojlanib borayotgan fan va texnika talablari, ta'lim usuli bilan jamiyatning raqabotbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida nomunosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yondashuvlarni qo'llash usuli , hal etishi lozim.

O'quvchilar bilimni o'zlashtirish jarayoni, boshqarishning eng oddiy usulu, testlar yordamida vaqti-vaqti bilan nazorat qilib tekshirib borishdir. Har bir amvzuni o'rganayotganda nazorat vaqti va usuli oldindan belgilab qo'yilishi, ya'ni o'quv jarayoni standartlashtirilishi lozim. Ularni bilimini baholashda reyting usullari bilan belgilansa, ularda intilish yanada kuchliroq bo'ladi. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlash , o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab, shakli, hajmini o'zlashtirish ham, ta'lim texnologiyasiga daxldordir.

Pedagogik texnologiya, ta'lim tarbiyasining ob'ektiv qonuniyatlari , diagnostika maqsadlar asosida o'quv jarayonlari ta'lim-tarbiyaning mazmunini, metod va vositalarni ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir.

Pedagogika mana shunday metodlar, prinsiplar qo'llansa, bu albatta yetishib kelayotgan yosh vlodni, barkamol bo'lib yetishishga kafolat beradi.

Noan'anaviy dars shakllari

Bugungi kunda taraqqiyotimiz har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqoza etmoqda. Bu albatta, ona tili o'qituvchilariga katta ma'suliyat yuklaydi.

Darsda qo'llanadigan interaktiv usullar, o'quvchilardan o'z ona tili va yurtiga nisbatan mehr- muhabbatli tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy jihatdan aniq va to'liq nutq sohibi va sohibasi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Darsdagi mavzuga oid materiallarni olish, ularni bajarishda, o'yin usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan: O'quvchilar ikkiga bo'linib, gap tuzatadilar. O'yin sharti quyidagilar: Birinchi gap qaysi harf bilan tugasa, ikkinchi gap shu harf bilan boshlanishi kerak. Undan tashqari maktabda adabiy kechalar o'tkazish ham o'ziga xos samara beruvchi bir usullardandir. Unda o'quvchilar, bunday tadbirlarda turli xildagi she'rlardan namunalar yozadilar. Timsollarga bo'linib, asarlardan parchalar ko'rsatadilar, sahnada o'zlari ijro etadilar.

O'quvchi uchun mustaqil o'rganishga berilgan badiiy asarni taqriz yozish orqali tahlil qilib berish usuli ham, anchagina samara beradi. Taqriz yozish jarayonida, badiiy asar tiliga e'tibor kuchayadi, ularni badiiy ijodga o'rgatish imkoni tug'iladi. Chunki, taqrizda har bir so'zning ma'nosini, ta'sir kuchi va salmog'ini to'liq anglashga harakat qiladi.

Jamiyatimiz azaliy orzusi- mustaqillikga erishib, fan va texnika, maorif, ta'lim- tarbiya sohasini samarali o'zgarishlarni o'rganib, pedagog erkin ishlab, ijod qilib, mehnatlari sifatiga nisbatan, o'ziga xos yangi shakli va taklif qilishi, unda yaxshi natijalarga erishib, ta'lim va tarbiya sifatiga mansub narsalarga erishadi.

Bugungi kun noan'anaviy darsda, o'yin, ijod darsi, mehnat darsi kabi variantlarini kiritishimiz mumkin. Bu dars shakllari, odatdagi darslardan butunlay boshqacha tashkil etiladi. Ammo, asosiy maqsadni ko'pincha a'lo darajada bajaradi. Bugungi kunda yurtimiz yosh avlodi

ijodiy qobiliyatini , iqtidorini, qiziqishini, intilishini sistema va muntazam o'qiy bilishi, ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etmoqda. Shu sababli, ta'lim jarayonida noan'anaviy shakllarni qo'llash zarur. Umuman, darsning turli xil noan'anaviy shakllari bo'lib, ular bilimining mustahkam bo'lishini ta'minlovchi omildir. Ta'lim standartlari , o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlaydi.

Ona tili fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni uyushtirish.

Noan'anaviy darsning faolroq ko'rinishlaridan biri bu – ona tili xonasidir. O'qituvchining sinfdan tashqari ishlari jonli va qiziqarli o'tkazishga ham yaqindan yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarga quyidagilar kiradi:

Til to'garaki, maktab devoriy gazetasi va adabiy, jurnali, vistavka, turli alimpiadalar o'tkazish, sayohatlar uyushtirish kabilar kiradi. To'garak mashg'ulotlarining mavzulari turlicha bo'lib, ular o'quvchilarni qiziqtirishi, fikr doirasini kengaytirishi kerak. Maktabda ona tili kechalarini o'tkazish juda katta ma'rifiy va ahloqiy ahamiyatga ega. Ona tili orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, malakalari muntazam taraqqiy ettirilib boriladi, oqibatda, o'quvchilar o'zining fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirib, eng muhim mantiqiy amallarini bajaradigan bo'ladilar. O'quvchi yoshlarni kitobga va u bilan muomila qila olishga , mustaqil ishlashga , tushunib o'qishga o'rgatish , butun maktab jamoasining , dastavval, ona tili o'qituvchilarining eng muhim vazifasidir.

O'qituvchi avvalo, metod tanlashda nazariy ma'lumot va unga mos keladigan mashqlar sinfning zo'r tayyorgarligi , o'quvchilarning yoshi va mavzuning hajmi kabilar hisobga olinadi.

Shunga ko`ra mashq, ko`rgazmali qurollar , suhbat kabi metodlar , deyarli har bir darsda qo`llanishi munkun . O`quvchilarga ona tilidan qanchalik chuqur va puxta bilim berilsa , ularni boshqa predmetlarga qiziqishi ortadi . Bular ko`p jihatdan muntazam ishlab turishga bog`liqdir . Ammo , noan`anaviy darsni tashkil qilish , o`qituvchidan juda katta narsani , ya`ni, izlanish, mehnat, ijod va fantaziya talab qilganidek, undan oqilona foydalanishni ham talab qiladi. O`qituvchi bunday darslarni ko`r - ko`rona tashkil qilishsa, u hech qanday yutuqqa erisha olmasligi mumkun .

Shuning uchun har bitta o`qituvchi, sinfdagi umumiy xususiyatlarni hisobga olgan holda, bu dars shaklini qo`llashi kerak, yoki o`zi ijod qilgani ma`qul. Hozirda maktablarda pedogogika - bayon qilingan turli xil dars tiplari bilan birgalikda noan`anaviy darslardan ham foydalanilmoqda. Noan`anaviy dars tipi, o`qituvchining qiziqishi, izlanishi natijasida, hosil bo`lgan elementlari mavjud bo`lgan yangi bir dars turidir. Bu darsni o`z qobiliyatiga ko`ra yosh o`qituvchi ham, uzoq yillik ish tajribaga ega bo`lgan pedogog ham o`tkazish mumkun . Noan`anaviy darsda, ko`proq darsdan tashqari turli o`yinlar , mavzuga oid tarqatma kartichkalar, yoki savol- javob, sayohat darslari, muammoli dars turlari, o`quvchilarning fiklash qobiliyatini mustahkamlash uchun mavzuga oid insho va bayonlar yozish, undan tashqari dars jaroyonida o`quvchilarni ikki guruhga bo`lib, turli musobaqa, krosvort yechish, miya charhi va boshqa bir qancha metodlar uyushtirilsa, maqsadga muvofiq bo`ladi. Bunday dars- hayotga bog`liqlik , yangilik, yangichadagi bir uslub, yangi bir izlanish kabilar o`qituvchining yutug`idir .

Amalda qo`llanayotgan ta`lim shakllari hozirgi ta`lim jarayonining barcha vazifalarini, o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini mustahkamlashni mantiqiy tafakkuri, ehtiyojlari, qiziqishlarini

rivojlantirish bilan an'anaviy darslardan tubdan farq qiladi. Chunki, an'anaviy dars bir xilda o'tadi. Ya'ni:

- a) Salomlashish
- b) Yangi mavzu o'tish
- c) Uyga vazifa berish
- d) Darsni yakunlash qismi, bilan cheklanib qoladi.

Aslida darsda bulardan tashqari mustahkamlash uchun ajratilgan darslar, fanga oid turli tadbirlar tashkil qilinishi kerak. Bu struktura bir qarashda osongina ko'rinsada, lekin unday emas.

Darslarning mustahkamlash jarayonlari samarali bo'lishi uchun, unga o'quvchilarning tayyorgarligiga e'tibor qaratishi kerak. O'qituvchi turli xildagi ochiq darslar o'tkazishdan oldin o'quvchilarni navbatdagi dars mavzusi bo'yicha muayyan topshiriqni tavsiya etishi zarur. Ushbu tip og'zaki va yozma ravishda bo'lishi mumkin. Bu juda qiziqarli bo'lib, bir umr o'quvchilar yodida qoladi va ularning bilim malakasi ochadi. Mazkur fanni akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchisiga o'qitishdan asosiy maqsad, milliy qadriyatimiz asosi bo'lib sanalgan ona tilimiz va adabiyotimizning bebaho merosi, an'analari bilan tanishish o'quvchilarning bilimlarini sistemali yo'sinda umumlashtirish va egallagan ko'nikmalarini mustahkamlashtirishdir.


Bulardan tashqari bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. O'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish. O'quvchilarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni chog'da o'qituvchilik faoliyatining bosh mezonini deb qaralmoqda. Zamonaviyroq bilim berish uchun, o'qituvchining o'zi mukammal shuning uchun darajadagi bilimga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun pedagogik kadrlarning obro-e'tiborini, ishtimoiy

maqomini , ma'suliyatini, malakasini oshirishga va zamon talablariga mos holda qayta tayyorlashga ahamiyat berilmoqda. O'zbek tili ta'limining maqsad va vazifalari quyidagicha tasnif etiladi.

Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston respublikasida umumiy o'rta ta'lim tashkil etish to'g'risida"gi (1998) umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tilini o'qitish borasida yangi vazifalarni qo'yadi. Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ular ongida ma'naviy- ma'rifiy inqilob hosil qilishga erishish lozim. Bu ta'lim yo'nalishining bosh maqsadi, og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini tarkib topdirishdan iboratdir. Undan tashqari til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, umumta'lim maktablari uchun , davlat ta'lim standartining qabul qilinishi ta'lim tizimiga muayyan inson shaxsini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan talablarni qo'yadi. Yangilangan ta'lim metodikasi umumjahon pedagogiksida samarali hisoblangan ongli verbal- kognitiv ta'lim tizimiga asoslanib, uning rivoji interfaol metodlar asosida takomillashtirilishi, zamon talabiga mos bo'lmog'i darkor.

Shundan kelib chiqqan holda, ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan , mustaqil fikrlovchi, nutq va muloqat madaniyati shakllangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadida ham qo'yilgan. Shundagina biz mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi yanada porloq bo'lishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. O'rta maxsus maktablarida ko'pincha an'anaviy dars shakllari bo'lganligi uchun , shu darsliklarda asosiy e'tibor imlo savodxonligini ta'minlashga qaratilgan, ammo shakl va mazmun uyg'unligiga kamroq e'tibor berilgan. Til o'qitish metodikasining

Asosiy maqsadi quyidagi jadvalda aniq qilib ko'rsatilgan.



- Amaliy maqsad bu- til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish, malaka hosil qilish.

-

- Ta'limiy maqsad bu- o'quvchilarda ijodiylik, fikrlash, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.

- Tarbiyaviy maqsad bu- ma'naviy- g'oyaviy, estetik tarbiya berish.

- Rivojlantiruvchi maqsad bu talaba tafakkurini aqliy jihatdan rivojlantirish.

-Yo'naltiruvchi maqsad bu talaba tafakkurini maqsadli yo'naltirish. Jamiyatimiz uchun kerakli shaxs bo'lib yetishtirishdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar

O'zbek tili mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat tili deb qonunlashtirilgandan keyin, xalq ta'limi oldiga Respublika taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi qo'yiladi. Kasb- hunar ko'llejlari va akademik litseylari zamonaviy asbob uskunalari bilan tubdan farq qiladi. Dars mashg'ulotlarini turli zamonaviy asbob uskunalari bilan tubdan farq qiladi. Dars mashg'ulotlarini turli zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan o'qituvchi qisqa vaqtda o'quvchilarning egallagan bilimi, atrof-dagilarga munosabatlari, muomala madaniyati va fikr doirasi, so'z boyligi, nutqiy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. Samarali dars shakllaridan biri bu- musobaqa darsi bo'lib, u til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokining ta'minlovchi vositadir. Bunda o'quvchi tortishuv va bahs oqibatida, qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi va o'z fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga o'rgatadi. Ilg'or metodlarimiz dars samaradorligini oshirishning yangicha vositalarini o'ylab topmoqdalar. Ularni zamonaviy o'quv texnika vositalariga tayanib, dars jarayoniga tadbiq etish usullarini ishlab chiqmoqdalar. Shu yo'sinda olib borilgan dars, litsey va kollej o'quvchilarini talab va qiziqishlarini yanada kuchaytirmoqda. Shuningdek, akademik litsey va kollejlarda, ona tili va adabiyot fanidan yillik mavzular rejasida talablarning ijodiy yozma nutqi ustida ishlashga ko'proq qaratilgan.

Ona tili mashg'ulotlarida yoshlarni erkin va mustaqil tafakkur egasi, ijodiy izlanuvchi, milliy g'oya va ajdodlarimiz an'analarini e'zozlaydigan, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda ona tili

o'qituvchisining ma'suliyati juda katta. Dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchi tinglash, anglash va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, o'z fikri va g'oyalarini o'zgalarga yetkaza bilish, ko'nikma va malakalarini shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Darsga tayyorlanish jarayoni o'qituvchi pedagogic mahoratning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Darsga tayyorlanish tartibi, quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

- Darsga zamonaviy pedogogik texnologiya asosida tashkil qilish maqsad va vazifani to'g'ri belgilash;

- Talabalarga milliy mafkura va istiqlol g'oyalarini singdirish.

- Dars mavzusini mukammal yoritishga hizmat qiladigan zamonaviy, o'quv-texnika vositalaridan unumli foydalanish

- Talabani til hodisalarini kuzatish, farqlash va sharhlashga yo'naltiradigan kompyuter dasturlari, multimediya, kadaskop, xizmatlaridan foydalanishga o'rganish.

O'qituvchi yoshlarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanish, ularga sharqona muloqat odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy hislatlarini singdira bilish lozim. O'quv mashg'ulotlarini yangi , zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish talablarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish , ayni kunda o'qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda. Ilg'or texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida teng, do'stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. O'qituvchi ta'lim metodini tanlashda darsning aniq maqsadi va vazifalaridan, material mazmunidan, o'quv imkoniyatidan kelib chiqilsagina talablarning o'zlashtirishi darajasi til xodisalariga qiziqishi ortadi va ularga og'zaki va yozma nutq malakalarining shakllanishi va takomillashuviga erishiladi. Bugungi kunda zamonaviy dars o'tish uchun ko'rgazmalilik

eng aktiv o'qitish metodlaridan biridir. Fan va texnika taraqqiyoti ona tili o'qitish metodikasining boyishiga ham xonalarning jihozlanishiga ijobiy ta'sir etdi. Masalan; ayrim rasmlar bo'yicha suhbat va Grammatik mashqlar o'tkazish, og'zaki hikoya qilish, yozma insho va bayon kabi ishlardan foydalanish mumkin.

O'quvchilarning fikrlash va nutq malakalarini o'stirish uchun eshittirishlar va telefilmlar ayniqsa ko'p materiallar beradi.

Eshittirishlar ona tili va adabiyot fanlari orasidagi aloqani yanada yaxshiroq ochishga imkon beradi. Bular o'quvchilar nutqini va tafakkurini, mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish uchun xizmat qiladi. Bu ishlar natijasida birinchidan o'qituvchi o'z o'quvchilarini texnika vositalari bilan ishlashga o'rgatadi, ikkinchidan o'zining ishi ham yengillashadi. O'quvchi va talabalar bilimlarni puxta o'zlashtirish muntazam ravishda mashq qilishni taqozo etadi.

Mashq orqali o'quvchilar til faktlarini kuzatib, analiz qilib, qiyoslab, ma'lum bir xulosaga keladilar. Mustahkamlash darslari katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turadi. Chunki, o'quvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishmoq uchun jiddiy ishlaydi, irodasi tarbiyalanadi, qobiliyati o'stiriladi, topshiriqni bajarish uchun turli vositalardan, fikrlash fo'rmalaridan foydalaniladi. Mustahkamlash darslarining samaradorligini ta'minlash uchun test tanlashga, ish usullarining xilma-xil bo'lishga, ayniqsa o'quvchilar aktivligini oshirishda alohida e'tibor berish zarur. Shundagina biz ko'zlagan maqsadimizga erishamiz.

Har bir dars, ayniqsa ilg'or o'qituvchinin darsi, o'zining ijodiy xarakteri bilan ajralib turishi kerak. Odatda tajribasiz o'qituvchilar ma'lum bir qolipda dars berishga moyil bo'ladilar. Darslarni k'rgazmali o'tkazish uchun barcha sharoitlar mavjud: grafik, simbolik, tasviriy

manbalar, ayniqsa texnik vositalar o'qitishning ilmiy va g'oyaviy tomondan yaxshilanishida eng muhim omillardandir. Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilar estetik tarbiya berish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud. Ona tili mashg'ulotlarida eng yaxshi tasviriy tekstlar ustida ishlash orqali, o'quvchilar e'tibori nutqning ematsianol tomoniga ko'proq jalb etiladi. Metodik tomondan o'zini oqlamagan tajribada sinab ko'rilgan hilma-xil struktura va dars variantlari ona tili o'qitish sistemasining yutug'i hisoblanadi.

-Ta'lim jarayonini oldindan loyixalash va sinfdan o'quvchilar bilan qayta ishlash

-Tizimli yondashuv asosida talabaning o'qiy bilishi faoliyatini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish.

-Ta'lim maqsadi real, aniq va o'quvchining bilimi o'zlashtirish sifatini ob'ektiv baholash.

-Ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirida bo'lishi.

-Ta'limda texnik vositalar va inson salohiyatini o'zaro ta'sirini hisobga olish.

-Belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish.

-Talaba faoliyatiga tayanib o'tish.

-Ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishishning kafolatlanganligi.

- Ta'lim samaradorligini yuqoriligi.

Pedagogik tushunchasiga doir mavjud ta'riflar hamda pedagogik texnologiya usulining muhim belgilari, xususiyatlarni umumlashtirgan holda keltirdik. Pedagogik texnologiya yondashuv asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish natijasini kafolatlashuv va ob'yektiv baholash uchun inson salohiyati va texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini

oydinlashtirib o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir. Bunday usul va metodlarni ishlab chiqish, pedagogik texnologiya va metodikasining vazifasidir. Pedagogik texnologiyaning fan sifatida vazifasi ta'lim-tarbiya amaliyatida eng samarali eng samarali va tejamli o'quv jarayonlari, shaxsni kasb egasi sifatida shakllantiruvchi pedagogic, psixologiya qonuniyatlarini aniqlash, shuningdek, falsafa, satsiologiya, fiziologiya, matematika, infarmatika va boshqa fanlarning qonuniyatlaridan foydalanish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Pedagogik texnologiya uchun, pedagogik amaliyot jarayonlarni belgilash va tasvirlash o'quvchi yoki talaba kelgusi faoliyatida duch keladigan vazifalarni oldindan aniqlash o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, o'quv yuklamasi bolaning kuchiga moslik darajasini va talabaning o'zlashtirish tezligining aniqligi; o'quv jarayonining motiv kampanentini ro'yobga chiqarish maqsadida mazmunga kirishi uchun qo'shimcha ravishda vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash; shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan nisbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi sifatini baholash mezonlariga mos bo'lgan ob'yektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash: darsda va darsdan tashqari, o'quvchiga beriladigan vazifalarni rejalashtirish, mustaqil mashg'ulotlarning tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish kabilar ham pedagogik texnologiyaning vazifalari hisoblanadi. Pedagogic tizim didaktik vazifa va ta'lim texnologiyasini o'z ichiga oladi. Ta'lim tarbiyaning maqsadi va mazmuni didaktik vazifadir.

Pedagogik amaliyotda didaktik vazifani ta'lim texnologiyasi yordamida o'quvchi, talaba o'zlashtirib oladi.

Hozirgi zamonaviy pedagogika fanida ta'limni tashkil etishga doir bir qancha psixologik . pedagogik g'oyalar mavjud.

Ularni umumlashtirib talaba o'quv-bilish faoliyatining bir necha tiplarini ifodalash mumkin. O'quv faoliyatining umumiy formulasi o'zlashtirishning turli nazariyalarini va farazlariga binoan o'qiladigan va izchil mashqlar tizimidan iborat bo'lgan, ya'ni bo'lak-bo'lak o'quv harakatlarining izchilligi shu nazariyada bajarilish algaritimini hosil qiladi. An'anaviy ta'limda talabaning bilish faoliyati tuzilishiga nisbatan bosqichma-bosqich shakllanish nazariyasida, aqliy harakatlarni bajarish aniq ko'rilganligi bilan ajralib turadi. Chunki, ta'lim tizimida , sinfda darslarda bola qo'li biror ishni bajarmay , hatto o'qituvchi bilan birga fikr – mulohaza qilmay qanchadan-qancha saotlarni befoyda zerikarli o'tkazadi. Bugungi kunda ona tili ta'limini zamonaviy pedagogic texnologiya asosida olib borish , dolzarb vazifa bo'lib turibdi. Yangi zamonaviy pedogogik texnologiya ona tili fanining barcha bo'limlarida o'z tasdig'ini tashkil etish mumkin. Bu o'quvchi va o'qituvchi orasida katta to'siq bo'lmasligi o'quvchilarga ijodiy erkinlik maromini hosil qilgandagina biz maqsadga erishishni tan olamiz. Bugungi zamonaviy pedogogik texnologiyaning ona tili ta'limida, xususan kasb- ihunar kollejlarda olib borilishi, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

Ta'lim sifatini faqat o'qitish uslublarini takomillashtirish va o'qitishnik texnik vositalaridan kengroq foydalanishi hisobigagina oshirish mumkin. O'quv muassasalarda seminarlarning samaradorligini oshirish maqsadida kafedralarni sohalariga va turdoshliklariga qarab birlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Texnik vositalarning keng qamrovli. Uslubiy, asosli qo'llanishi ta'lim yutug'ini oshiradi, ilmiy bilishning imkoniyatlarini kengaytiradi, nazariy ma'lumotlarni chuqurroq

o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. O'rganilgan olg'or pedagogik texnologiyalar va mavjud tajribalar xulosasi o'quv texnik vositalarini o'quv jarayonida qo'llash ijobiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi, biroq har qanday yangilik, undan foydalanish didaktik asoslanganda, uni ishlatish uslubi to'g'riroq tanlanganda va zarur uslubiy materiallar ishlab chiqilgandagina samara berishi mumkin. Tarixan pedagog bo'lish murakkab va ma'suliyatli vazifa hisoblangan. Chunki, har qanday mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi malakali mutaxassislarini tayyorlab, ularni tarbiyalashga bog'liq.

Malakali kadrlarni faqatgina tajribali va malakali o'qituvchilar tayyorlaydilar. O'qituvchilar o'quvchilarning bilimi, tarbiyasiga ma'sul va javoblar shaxs hisoblandi. Hozirgi paytda dars jarayonida kodoskoplar, kompyuter yordamida ko'plab jarayonlar, chizmalar formulalar namoyish qilinadigan bo'ldi. Zamonaviy texnik vositalarni dars jarayonida keng qo'llash o'tilayotgan darslarning sifatini ancha oshirish imkonini berdi. O'qitish bu eng murakkab jarayon bo'lib, u o'z ichiga avvalo, o'qituvchi va o'quvchining uzviy faoliyatini oladi. O'qituvchi dars payti qancha harakat qilmasin, agar o'quvchilar darsda faolroq ishtirok etmasalar, o'zlashtirish past bo'ladi. Dars berishga texnologik yondashish samarali pedagogic texnologiya hisoblanib, o'qituvchidan yuqori darajadagi malaka talab qilinadi.

Dars berishning eng samarali texnologiyasi "izlanish, ijod qilish:" hisoblanadi. Bu texnologiyada, dars o'tiladigan mavzuga tegishli muammolarni yechish bo'yicha izlanishlar, tahlillar olib boradilar. Natijada qizg'in ijodiy izlanishlar orqali muammolarni yechish usullari ishlab chiqiladi va ular yordamida muammolar hal qilinadi. Bunday texnologiya bo'yicha dars o'tish talablarni ijod qilishga, muammoli yechish yo'l- yo'riqlarini qidirib topib, ularni amalda qo'llash,

ma'lumotlarni izlash, topish jarayonlarini modellashtirish, tajriba o'tkazish, tanqidiy-ijodiy fikr yuritish, ko'p ko'rsatgichli asoslash, yangilikka intilishni o'rgatadi va muhimi talabalarning aql-zakovatini keskin o'zgartiradi.

Zamonaviy ta'lim berish nazariyasi va amaliyoti barcha fanlardan dars jarayonida turli o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishi ortib borishi, ta'limning ijtimoiy hayot bilan bog'lanishiga imkon berishi va nihoyat ta'lim samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning "Milliy modeli"da umumiy o'rta ta'lim, uzliksiz ta'lim tizimi asosiy bo'g'ini hisoblanib ta'lim muassasalarida shaxs ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, egallagan bilimi, ko'nikma, malakalari asosida tarkib topadi. Prezidenrimiz : " Yangi ta'lim tizimini o'zgartirmay yurib yoshlar ongini o'zgartirib bo'lmaydi",- degan edi. Bugungi kun uzluksiz ta'lim tizimida kasb- hunar ta'limi alohida o'rin egallaydi. Kasb- hunar kollejlari bir qancha metodik adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarda fanlararo bog'lanishning imkoniyatlari va samaradorligi atroflicha yoritib berilgan. Ammo, kasb-hunar talimini takomillashtirishning hozirgi bosqichi kasb- hunar kolleji o'qituvchisidan o'z vazifasiga yangicha yondashishni ta'lab etadi. Bugungi kollej o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim olishga yo'naltiruvshi ham bo'lishi lozim. Bugungi kunda bu narsaga erishish uchun esa, kasb- hunar kollejlari qo'llanib kelinayotgan an'anaviy o'qitish usullari emas, balki interfaol usullardan foydalanish ancha yuqori darajani ko'rsatadi.

Jamiyat oldida barkamol shaxsni shakllantirish, bilimli, teran fikrga, mustaqil dunyoqarashga ega bo'lgan, zamonaviy ishlab chiqarish salohiyatini to'la his qiladigan kadrlarni yetishtirib berish vazifasi turadi. Bularning bari o'qituvchiga borib taqaladi. O'zbek tili

ta'limini takomillashtirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan doimiy anjumanlar samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Akademik litsey va kasb- hunar kollejlardagi o'qituvchilar saviyasi va malakasining oshirish masalasi jiddiy e'tibor berishni talab qiladi. Eng yangi, zamonaviy o'quv vositalari bilan ta'minlangan kasb-hunar kollejlarda eski usuldagi o'qitish davom etishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ularning asosiy vazifalaridan biri o'qituvchilar tanlagan mutaxassisligini to'liq egallashlari uchun ularni ta'lim olish, o'quv va ishlab chiqarish amallariga aqliy va mehnat faoliyatiga o'rgatishdir. Shundaygina o'qituvchilar mantiqiy fikrlash malakalarini muntazam taraqqiy ettirib boradilar. Dars jarayoni yakunida o'qituvchi mavzuning bosh maqsadini nazarda tutib asosiy fikrlarni bayon etib, xulosalaydi va darsni yakunlaydi. Bu uslub ham yangi pedagogic texnologiyaning bir elementi bo'lib, hali juda ko'p ishlovni, tajriba- sinov ishlarini talab etadi. Yangi mavzuni bayon etish, darsning ko'rgazmaliligi, asl nusxalar, turli chizmalar o'quv texnika vositalari katta ahamiyatga ega. Mavzu bolalar xotirasida uzoq saqlanib qolishini ta'minlashda darslik o'quv qo'llanma bilan amaliy ishlash muhim o'rin egallaydi. Ta'limda bilimga qiziqtirish mustaqil bilim olish ishtiyoqini shakllantirish, mustaqil bilim olishga ishonch hosil qilish va odatlantirish mustaqil bilim olishga harakati, hozirgi kunning va kelajakning talabidir. Pedagogic texnologiya shu talabni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim va tarbiya tizimidir. Bu texnologiyaning talablaridan yana biri- o'qituvchilarning asosiy va puxta bilim olish, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatish, ta'limda aniq kafolatlangan natijaga erishishdir.

Pedagogic texnologiya ta'limning barcha bosqichida istalgan o'quv predmetini o'qitishda qo'llanishi mumkin. Chunki pedagogic texnologiya bugungi kunning va kelajakning talabi bilan yuzaga keladi.

Mana shunday malakaviy bitiruv ishimizda, yangi pedagogik texnologiyaning ona tili ta'limda qo'llanishi, o'quvchi yoshlarga chuqur tafakkur egalari bo'lib yetishishida katta yordam beradi, degan umiddamiz va bunga ishonamiz!

Bir soatli dars ishlanmasi.

I. Mavzu:

Yordamchi so'z turkumlari.

II. Darsning maqsadi.

- a) Ta'limiy maqsad- Yordamchi so'z turkumlarini o'quvchilar ongida singdirish.
- b) Tarbiyaviy maqsad- Ushbu mavzu orqali o'quvchilar tafakkurini oshirish.
- c) Rivojlantiruvchi maqsad- O'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishi va intilishlarini shakllantirish.

III. Darsning jihozi.

Sinf daskasi, krassvord, tarqatma kartochkalar, test.

IV. Tashkily qism.

- a) Salomlashish, davomatni aniqlash, uy topshiriqini tekshirish.
- b) Dars jarayonini olib boorish
- c) Uyga vazifa berish.
- d) Xayrlashib, ularni baholash.

V. Darsning borishi

Reja:

1. Ko'makchi-Yordamchi so'zlarning bir ko'rinishidir.
2. Bog'lovchilarning ma'no va vazifasiga ko'ra turlari.
3. yuklama-affiks va yuklama-so'z.

Tiladagi har bir so'zni, ayniqsa yordamchi so'zlarni alohida o'rganish, har bir tilining ichki taraqqiyot qonunlarini ochishga yordam beradi. Chunki har bir yordamchi so'zga o'tishi bilan grammatik ma'no tashuvchi vositaga, grammatik formaga aylanadi. Ular asosan uch xil ko'rinishda bo'ladi. a)Ko'makchilar b) Bog'lovchilar c) Yuklamalar

Bog'lovchilar gapda vosita, maqsad, sabb, vaqt, makon kabi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qo'llaniladigan so'zlar turkumiga ko'makchi deyiladi. Ular ikkiga bo'linadi.

a) sof ko'makchilar- leksik ma'nosini yo'qatgan bo'lib, boshqa so'zlar bilan birikib turli munosabat bildiradi. Ular: bilan, uchun, sayin, sari, uzra, qadar, orqali ... Poyezd orqali.

b) Funksional ko'makchi- bu o'z ma'nosini yo'qotgan emas. U bir necha turkumlarda bo'ladi.

a)ot-old, orqa, tamon, ust, haqida...

b)sifat-boshqa, qarshi, tashqari.

c) fe'l- ko'ra, qarab, boshlab, tortib

d) ravish- burun, ilgari, keyin, avval, so'ng.

Bog'lovchilar – bu ham gap bo'laklarini bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ular ikkiga bo'linadi.

1. Teng bog'lovchilar –ma'nosiga ko'ra uchga bo'linadi;

- a) Biriktiruv- va, hamda, bilan
- b) Zidlov-ammo,lekin, biroq
- c) Ayiruv- yo, yoki, ypxud, goh, dam, ba'zan.

2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar ma'no ifodalashiga ko'ra 4 xil

- a) Aniqlov- ya'ni, ki, kim
- b) Sabab- chunki, shuning uchun.
- c) Shart- agar, basharti, agarchi
- d) Qiyosiy- go'yoki, go'yo

Bog'lovchilar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi.

a) yakka bog'lovchi- uyushgan bog'lovchilar ichida yakka holda qo'llanadi. Ular, hamda, va, biroq, yoki, gar

b) Takroriy bog'lovchilar- sodda gaplar orasida takror qo'llanadi.

Yuklamalar- so'z va gapda qo'shimcha ma'no berish uchun qo'llanuvchi yordamchi so'zlar yuklamalar deyiladi. Ular ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi.

- 1. So'roq va ta'jub- mi, chi, a, ya
- 2. Kuchaytiruvchi ta'kid- u, yu, da, ku, oq, yoq, hatto, ahir

3. Ayiruv- chegaralov- gina, kina qina, faqat, faqatgina
4. Aniqlov- huddi, naq
5. Gumon- dir
6. Inkor- na..na

Affis yuklamalar bilan soʻz yuklamalarning farqi shuki, afikslar soʻzga qoʻshilib yangi soʻz yasaydi. Yuklama soʻzlar esa, oʻzi izohlab kelgan gap va soʻzlarga qoʻshimcha maʼnolar beradi. Yordamchi soʻzlar vazifasiga koʻra kelishiklarga yaqin turadi. Masalan: Qalam orqali yozdim-qalamda yozdim

VI.Uyga vazifa berib, ularni baholash.

Koʻmakchilarni kelishiklar oʻrniga qoʻllab 10 ta gap tuzish

Xulosa

Kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimida mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda mavjud kamchilik va muammolar ham ko'rsatib berilgan. Xususan umumiy o'rta ta'lim maktablarning boshqa o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining o'zidagi va o'qitish uslubidagi kamchiliklar oqibatida o'quvchilardagi mustaqil ravishda fikrlash o'rta ta'limning amaliy yo'nalganligi, mehnat ko'nikmalari shakllanish va kasbga yo'naltirilganlik darajasi yetarli emasligi nazarda tutiladi.

Ona tili ta'limining deyarli har bir mavzusi nafaqat har bir maktablarda, balki oliy o'quv yurtlarida ham mustahkamlab o'tilmoqda. Shulardan biri ona tili ta'limida keng qamrovli mavzu hisoblangan, yordamchi so'z turkumlarining har bir qismlari va ularning nechta qismlarga bo'lib o'rganilayotgani, bugungi kunimiz o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, firlash qobiliyati yanada keng bo'lishida yaxshigina natija bermoqda. Undan tashqari, ushbu mavzu orqali, odamning so'z boyligi oshib va tarbiyali bo'lib yetishishida katta ahamiyat kasb etadi.

Mana shunday bo'lishida zamonaviy pedagog texnologiyaning o'рни ham judda katta. Bugungi kun zmonaviy pedogog texnologiyaning ona tili ta'limida, ayniqsa akademik litsey va kasb-hunar kollejlaida olib borishni o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

Biz mustaqilligimiz sharofati bilan shunday imkoniyatlarga ega bo'ldik. Bundan oqilona foydalanish bizlarning vazifamizdir!

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Davlat ta’lim standarti
2. “O’zbek tili o’qitish metodikasi” B. To’qliyev, Ziyodova 2006
3. “Til va adabiyot” jurnali 1992 yil. 1-2-son
4. 7-sinf ona tili darsligi
5. Ta’lim texnologiyasi
6. « Maktab va hayot » jurnali 2006
7. Ona tili o’qitishning yangi texnologiyasi haqida Bobokolonov R, Ne’matova T
8. « Hozirgi o’zbek adabiy tiliini o’rganishda jadvallar foydalanish »- T. 2002. Litseylar uchun
9. O’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatish- T. 2000 ziyodova T
10. « Ozbekiston XXI-asr bo’sag’asida »_T 1997 yil I. A Karimov
11. « Ozbek tilining nazariy grammatikasi »- T 1995. Mahmudov. Nurmanov A
12. « O’zbek tilini o’rganamiz » lug’at. B. To’xliyev, N. Mahmudov
13. « O’zbek tilining imlo lug’ati » -T 1995. Rahmatullayev Sh.
14. « ozbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuniga sharhlar »- T 1999.
15. « O’zbek tilining yangi alifbosi va imlosi » _T. Universitet 1999.